

## INSON QADRI HAR NARSADAN ULUG'

Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi,

Fan va texnologiyalar Universiteti Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7433719>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson qadrini ulug'lash va bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri uchun olib borilayotgan turli xil islohotlar va ularning samaralari haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, Inson qadri, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Inson qadri uchun" tamoyili, qonun, farmon, qadriyat, tarbiya.

## ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ ПРЕВЫШЕ ВСЕГО

**Аннотация.** В данной статье была дана информация о прославлении человеческого достоинства и различных реформах, проводимых сегодня в нашей стране для человеческого достоинства и их результатах.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, Человеческая ценность, Стратегия действий, Стратегия развития, принцип «Во имя человеческой ценности», закон, указ, ценность, образование.

## HUMAN VALUE IS THE MOST VALUABLE

**Abstract.** This article provided information about the glorification of human dignity and the various reforms carried out in our country today for human value and their effectiveness.

**Keywords:** New Uzbekistan, human dignity, Action Strategy, Development Strategy, principle "for Human Dignity", law, decree, value, upbringing.

## KIRISH

Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergen bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan - yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Xususan, 2022- yilga "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nom berilishi bunga yorqin misoldir. Yangi 2022 yilda mamlakatimizda Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari say-harakatlarimiz ko'lami yanada avj oldi. Bunda aynan inson qadri uchun ezgu g'oyasi muhim vazifani o'tab kelmoqda. Keyingi ikki yil davomida mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar tufayli barcha javhada tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, xalqimizning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston xalqparvar, insonparvar davlat sifatida tilga tusha boshladi. Bunga yurtimizda kam ta'minlangan, nochor oilalarni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilib ko'rsatsak, o'rinci bo'ladi. Yangi yil arafasida Mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalar davlat tomonidan yangi uylar bilan ta'minlandi.

Yaxshiliklar, xayrli ishlar bardavom bo'lib, inson qadri ulug'langan yurt doimo taraqqiy etadi. Xalqi hamjihatlikda, mehr-muruvvatda umrguzaronlik qiladi. Shu bois, mamlakatimizdag'i bosh islohotlarda inson sha'ni, uning qadr-qimmatiga katta e'tibor berilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, davlatimiz rahbari raisligida shu yil 26-yanvar kuni O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor

yig'lishida, yurtimizda inson qadri ulug'lanishiga doir vazifalar belgilandi. Boisi, inson qadrini ulug'lash eng oliy fazilat bo'lib, yurtimizdagi islohotlarning mantiqiy davomidir.

Davlatimiz rahbari "**Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz**", deya ta'kidladi.

## TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Taraqqiyotimizning yangi davrida aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ong-u shuurida inson qadriga bo'lgan e'tiborning amaliy ifodasi shakllanmoqda, ushbu fazilatlar xalqimiz turmush tarzida tobora mustahkam qaror topib bormoqda.

Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Ta'kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lida yangi imkoniyatlar ochdi. Mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo'lishi uchun barcha choralarни ko'rilmoxqda.

Xalq qachonki rozi bo'lsa jamiyat tinch va baxtli bo'lishadi. Hozirgi zamonda hamma narsa yetarli darajada bo'lib, inson qadri asta-asta tushayotgan bir paytda prezidentimiz tomonida inson qadrini ulug'lashga, uning manfatlari, yaxshi yashashi, oilasi tinch va farovon yashashlari kerakli haqida aytib o'tmoqdalar.

Respublikamizda inson qadri borasida turli loyihibar, qonunlar, farmonlar ishlab chiqilmoqda va ular amalga tadbiq qilib borilmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga barcha imkoniyatni yaratib berish, ularni yetuk va yurt kelajagi manfaati tegadigan shaxs bo'lib shakllanishiga katta etibor berilib kelinmoqda.

Shuningdek yuqorida keltirib o'tilgan Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e'tiborga olindi, yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirildi. Eng muhimi, hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi. Tom ma'noda, xalqimiz hammullifligida ishlab chiqildi, deyish mumkin.

Hujjatda "Inson qadri uchun" degan tamoyilni hayotda to'la ro'yobga chiqarish vazifasi yaqqol aks etgan. Aytish kerakki, bu qadriyat balandparvoz gaplardan xoli tushuncha bo'lib, uning zamirida har bir insonning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishdek ustuvor maqsad va vazifalar mujassam.

Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda. Bular:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 41 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 28 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 133 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 33 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 39 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 77 ta chora-tadbir belgilanmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda barcha ishlab chiqilayotgan qonun, farmon va boshqa huquqiy hujjatlar negizida inson qandrini ulug'lashga qaratilgan eng oliv maqsad ko'zlanganligini ko'rshimiz mumkun.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent - 2021. "O'zbekiston" nashriyoti. 22.b 2. Sh.M. Mirziyoyev.
2. 2 dekabr kuni bo'lib o'tgan aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi ijrosini samarali tashkil etish, ipoteka kreditlashni kengaytirish va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektoridan keltirilgan.
1. Xalq so'zi gazetasi №50 10.03.22 yilgi soni.
2. Xolmo'minov M., A.Qolqanatov. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi va madaniy-marifiy ishlar// jur. O'zDSMI Xabarları. 2021. №4. Toshkent. Donishmand ziyosi.
3. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.